

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 131 (1730), 2026-yil 1-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



BILIMGA TASHNA, YANGILIKKA INTILUVCHAN, AZM-U SHIJOATLI YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni Olimpiya shaharchasida faol va tashabbuskor yigit-qizlar bilan muloqot qilib, bir guruh yoshlarga davlat mukofotlarini topshirdi.



Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvi mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi uchun g‘oyat muhim. Zotan, mazkur anjuman doirasida barkamol avlod taqdiriga doir masalalar ko‘tarilib, tashabbuslar ilgari surilishi barobarida mamlakat kelajagiga daxldor ko‘plab vazifalar belgilab olinadi. Bugun mamlakatimiz aholisining oltmish foizidan ko‘prog‘i yoshlardan iboratligini inobatga

olsak, bu biz uchun o‘ta dolzarb jarayon ekani oydinlashadi.

Shu bois, yangi O‘zbekistonda yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi, ularni qo‘llab-quvvatlash doimiy e‘tiborda. Davlatimiz rahbari qayerga tashrif buyurmasin, yoshlar taqdiri bilan qiziqib, mavjud masalalarga yechim topib beradi. Ularning o‘qishi, kasb egallashi, ishlashi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazib kelinayotgan muloqot esa ayni shu yo‘nalishdagi ishlarga o‘zgacha shijoat bag‘ishlaydi. Yoshlarga kuch va rag‘bat beradi. Chunki muloqot jonli kechadi. Yoshlar to‘g‘ridan to‘g‘ri davlatimiz rahbari huzurida taklif aytish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yuzma-yuz muloqotning samarasi ham mutlaqo boshqacha. Uchrashuv O‘zbekiston yoshlari uchun noyob imkoniyatlar eshigini ochadi.



Galdagi muloqot ham ayni shu jihati bilan alohida ajralib turdi. Uchrashuv tafsilotiga batafsil to‘xtalishdan oldin muloqot o‘tkazilgan manzilga e‘tibor qaratmoqchimiz.

Olimpiya shaharchasi yangi O‘zbekistonning bunyodkorlik qudratini namoyish etuvchi yirik loyihalardan. Yuz gekardan ortiq hududda qad rostlagan shaharchada velodrom, futbol va yengil

atletikaga mo‘ljallangan markaziy stadion, suv sporti majmuasi, jamoaviy o‘yin turlari hamda yakkakurash sporti turlariga ixtisoslashtirilgan majmualar joylashgan. Shuningdek, bu yerda olimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiyalar va boshqa sport tashkilotlari faoliyat yuritmoqda.

Yoshlar va sport mamlakatni dunyoga eng tez tanituvchi vosita ekanini inobatga olsak, muloqotning aynan ushbu

shaharchada tashkil etilishida ham o‘ziga xos ramziy ma‘no bor, nazarimizda. Yangi Olimpiya shaharchasi va yangi O‘zbekiston yoshlari — bir-birini to‘ldiruvchi ikki ustun. Sport kuch-qudrat timsoli bo‘lsa, yoshlik fasli inson umrining quvvatlash holidir.

[Davomi 3-betda](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Aziz yoshlar!

Qadrlı o‘g‘il-qizlarim!

Sizlar bilan islohotlarimizning ilk davridan boshlab shakllangan yaxshi an‘anemizga ko‘ra, bugun — Yoshlar kunida yana bir bor uchrashib turganimdan mamnunman.

Fursatdan foydalanib, barchangizni, sizlar orqali butun yurtimiz yoshlarini ushbu qutlug‘ bayram bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro‘yobga chiqarishni islohotlarimizning dastlabki kunlaridan davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida amalga oshirib kelmoqdamiz. Shu maqsadda

har bir mahallada o‘g‘il-qizlarimizning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab, ularga ko‘makchi bo‘ladigan yoshlar yetakchilari korpusini shakllantirdik.

Yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi, bandligi, ma‘naviyati, vaqtini mazmunli o‘tkazishiga Davlat xavfsizlik xizmatini (B.Qurbonov) viloyat va tumanlardagi tizimi bilan birga mas‘ul etib belgiladik.

Navqiron avlodni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat, kattalarga hurmat va ezigu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash maqsadida nuroniy otaxon va onaxonlarimizning boy hayotiy tajribasidan foydalanishni keng yo‘lga qo‘ydik.

Mamlakatimizda har haftaning payshanba kunini Yoshlar kuni deb e‘lon qilib, barcha vazirlik va idoralarni yoshlar

muammolarini o‘rganish va ularga yechim topish masalasiga to‘liq safarbar etdik.

Mana shunday sa‘y-harakatlarimiz tufayli yurtimizda yoshlar bilan ishlash muhiti tubdan o‘zgardi. Xususan, bilim olish, kasb-hunar egallash, til o‘rganish, ish topish va biznesni boshlashda qiyinchilikka uchragan 1,5 million nafar yigit-qizning muammosi “Yoshlar daftari” orqali hal qilindi; alohida dasturlar asosida jozibador biznes muhiti va imtiyozli resurslar yaratib berganimiz hisobidan yosh tadbirkorlar soni 5 karra ortib, 287 ming nafardan oshdi; o‘quv markazlarini ko‘paytirish bo‘yicha qulay sharoit yaratganimiz uchun xorijiy tillarni intensiv o‘rganayotgan o‘g‘il-qizlarimiz 3,5 million nafarga yetdi; iqtidorli o‘quvchi va talabalarimiz nufuzli fan olimpiadalarida

434 ta, yosh sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 2 ming 245 ta medalni qo‘lga kiritdi; tarbiyasi og‘ir yoshlarni huquq-tartibot idoralari va hokimlarga birlashtirganimiz uchun ikki yilda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik 2,5 karra kamaydi.

Albatta, bu — yoshlar bilan bog‘liq barcha masalalar hal bo‘ldi, degani emas. Davlat xavfsizlik xizmati (B.Qurbonov), Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa‘dullayev), Mahallalar uyushmasi (Q.Quronboyev), vazirlar, ularning viloyat va tumanlardagi tizimi, hokimlar, rektorlar, texnikum va maktab direktorlari yoshlarning muammosi, ularning ehtiyoj va qiziqishlari bo‘yicha tinimsiz ishlashi kerak.

Bosh vazir A.Aripov har bir vazir, hokim, tarmoq va bank rahbari yoshlar masalasida

qanday ishlayotganini qattiq nazorat qilib, har oyda mas‘ullardan bu borada hisobot olib boradi.

O‘tgan hafta Namanganga amalga oshirgan tashrifim davomida davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi rahbari Abdurauf Jumanov eng og‘ir mahallalarda yoshlar muammolari bo‘yicha tahlil markazi, “Bir oy — to‘rtta mahalla” loyihasi, “mahalla ustoz” tizimi va texnikumlarni o‘taliqqa olish haqidagi o‘z tashabbuslari to‘g‘risida axborot berdi.

Bu tashabbuslar menga juda ma‘qul. Endi har bir viloyat davlat xavfsizlik xizmati boshqarmasi rahbari, shahar va tuman hokimlari yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘zlarining ana shunday tajribalarini yaratishi zarur.

Yaxshi natijalarga erishgan rahbarlarga yil yakunida va kelgusi yil Yoshlar kuni arafasida oylik maoshiga alohida ustama va davlat mukofotlari beramiz. Ko‘rsatkichlari past, yangilikka intilmagan hudud rahbarlariga nisbatan esa qattiq chora ko‘riladi.

Aziz farzandlarim!

Bir haqiqatni bilib olinglar, bugungi kunda davlatlar hududi bilan emas — bilimi bilan, aholi soni bilan emas — texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas — inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda.

Endi zamonaviy ilm-fan va tafakkur mahsuli bo‘lgan yangi iqtisodiyot — bilimlar iqtisodiyoti hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

[Davomi 2-betda](#)



MUNOSIB RAG‘BAT KATTA KUCH VA ILHOM BAG‘ISHLAYDI



Bugun mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor va bildirilayotgan ishonch juda yuqori. Ayniqsa, Prezident maktablari berayotgan imkoniyatlar ilm-fandagi qudratimizni butun dunyoga tanitaypti. Chunki bu tizimda iqtidorli tengdoshlar o‘rtasida sog‘lom raqobat uyg‘ondi. Olimpiadalar, har xil tanlovlar o‘tkazilyapti. Ilmiy loyihalarda ham o‘quvchilar bir-biri bilan sog‘lom raqobatlashayotgani ayni muddao. Zamonaviy laboratoriyalar, AT sinflari o‘quvchilarni yaxshi natijaga yetaklaydi. Darsdan tashqari to‘garaklar esa bilimni yanada charxlaydi.

[Davomi 3-betda](#)

Nuqtayi nazar

**ANDIJON – TURKIY OLAM
MADANIYATINING YURAGI**

XALQARO MIQYOSDAGI YANA
BIR YUKSAK E‘TIROF

5

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Men bilaman, oʻgʻil-qizlarimizning har birida katta salohiyat, isteʼdod va iqtidor bor. Sizlar oʻz davrida buyuk kashfiyotlari bilan dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qoʻshgan, Birinchi va Ikkinchi Renessansning “aql chirogʻi” boʻlgan buyuk ajdodlarimizning munosib vorislarisiz.

Albatta, vorislik — bu faqat faxrlanish emas, balki ulkan masʼuliyat hamdir.

Ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyoti yoʻlida qanday buyuk ishlarni amalga oshirgan boʻlsa, sizlar Yangi Oʻzbekistonda yangi uygʻonish davri — Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan kuch boʻlishingiz kerak.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi kunda oʻzining bilimi, isteʼdodi, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan Yangi Oʻzbekiston ravnaqiga munosib hissa qoʻshib kelayotgan yoshlarimiz safi tobora kengayib borayotgani barchamizni xursand qiladi.

Kechamana shunday oʻgʻil-qizlarimizning 20 nafarini “Kelajak bunyodkori” medali bilan, yana 28 nafarini “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirlash haqidagi farmonni imzoladi. Hozir avval mukofotlarni egalariiga topshirib, keyin muloqotni davom ettirsak.

davlat mukofotlari sohiblarini butun xalqimiz nomidan yana bir bor tabriklayman. Ushbu yuksak eʼtirof sizlarni yangi marralar sari yetaklasin! Safingiz yanada kengayaversin!

Hurmatli yigʻilish qatnashchilari!

Bu yil 472 mingdan ziyod yoshlarimiz maktabni bitirdi. Ularning 300 mingga yaqini oliyoghlarda, 80 ming nafari texnikumlarda oʻqishni davom ettiradi.

Vazirlar va hokimlar qolgan 90 mingdan ziyod yoshlarni kasb-hunarli qilish, ular oʻz biznesini boshlashi uchun koʻmaklashish boʻyicha hozirdan aniq reja va chora-tadbirlarga ega boʻlishi kerak. Bundan tashqari, bu yil oliygohni tugatgan 324 million bitiruvchidan 222 ming nafarining ish joyi aniq boʻldi.

Rektorlar, Milliy bank (A.Mirsoatov) va Aloqabank (K.Irisbekova), viloyat va tuman hokimlari korxonalar va tadbirkorlar bilan birgalikda faol ishlab, shu yil 1-sentabrgha yana 102 ming nafar yoshga kafolatladi ish joyini aniq belgilab berishi zarur.

Shuningdek, kasb-hunarga ega boʻlmagan, oʻqigan boʻlsa ham oʻziga mos ish topa olmagan 112 ming nafar yoshlarimiz bor. Yoki diplomlari boʻlgani holda, yangi bilim va koʻnikma yetishmagani uchun 3-4 million soʻm oylikka ishlayotgan oʻgʻil-qizlarimiz 100 ming nafardan koʻp.

Agar tuman hokimi, tumandagi banklar oʻz hududidagi bunday yoshlarga ozgina turtki berib, malakasini oshirish, yangi kasblarga oʻrgatishni yoʻlga qoʻysa, ularga 10-15 million soʻm daromad topishi uchun katta imkoniyat yaratgan boʻladi.

Hozirgi vaqtda qancha-qancha sharoitlar mavjud, katta-katta mablagʻlar beryapmiz. Vazirlar, banklar, hokimlar ozgina jon kuydirib, shu ishlarni albatta qilsa boʻladi.

Qadrlil yoshlar!

Bugungi kunning muvaffaqiyat formulasi, ertangi taraqqiyotning mustahkam zaminini — uchta eng muhim ustunga tayanadi. **Bu — bilim, kasb va texnologiya.** Mening niyatim — har bir yigit-qiz ana shunday imkoniyatga ega boʻlib, hayotda munosib oʻrnini topsin. Shuning uchun har yili 500 ming nafar oʻgʻil-qizning zamonaviy kasbga ega boʻlishini taʼminlaydigan “Kelajak bilimlari ekotizimi” yoʻlga qoʻyiladi.

Hududlarimizda oʻquv markazi qurib, yoshlarga kasb va til oʻrgataman degan yigit-qizlarimiz soni koʻpayib borayotgani meni xursand qilayapti. Endi bu maqsadlar uchun yer va davlat obyektlari imtiyozli narxda auktsionga chiqariladi. Yoshlar toʻlovni besh yilda foizsiz, koʻlib toʻlaydi. Infratuzilmaga zarurat boʻlsa, davlat barpo qilib beradi. Oʻquv markazini qurish va jihozlash uchun kredit stavkasining 7 foizi kompensatsiya qilinadi. Yoshlarimiz oʻquv markazlariga ilgʻor xorijiy oʻquv dasturlari va oʻqituvchilarni olib kelsa, xarajatining yarmini qoplashga ham tayyorman.

Barcha hududlarda zamonaviy savdo va servis, yirik turizm komplekslari koʻpayib boryapti. Ular ishga kiraman deganlarga katta oylik taklif qiladi. Lekin talabi ham shunga yarasha boʻladi. Shu bois, qoʻlida kasbi boʻlib, xalqaro talablar asosida yangi koʻnikmalarni egallamoqchi boʻlgan yoshlarga kasb vaucheri berishni yoʻlga

qoʻyamiz. Ushbu kasb vaucheri foizsiz ssuda shaklida boʻlib, bu orqali har yili 50 ming nafar yoshlarimizning zamonaviy kasblarni oʻrganish xarajatlari qoplab beriladi. Ehtiyojmand oilalardagi 85 ming nafar ishsiz yoshlarga xususiy oʻquv markazida kasb egallashi uchun bepul vaucher taqdim etiladi. Shu yilning oʻzida kasb vaucheri va bepul vaucher tizimi uchun 120 milliard soʻm ajratiladi. Talab boʻlsa, bu mablagʻni koʻpaytirib boramiz.

Xorijiy tilni puxta oʻrganib, yuqori natija bilan sertifikat olgan yoshlarga xarajatini qoplash tizimini yoʻlga qoʻyganimiz oʻzini oqladi. Endi buni xalqaro kasb sertifikatini olganlarga ham tatbiq qilsak, sizlarga maʼqulmi?

Yoshlarga kasb oʻrgatishning eng muhim boʻgʻini boʻlgan texnikumlarda xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytiramiz. Buning uchun texnikum ochishdagi litsenziya shartini soddalashtirib, 20 dan ortiq talabni bekor qilamiz. Yangi oʻquv yilidan xususiy texnikumlarga ham kasbga oʻqitish boʻyicha davlat granti beriladi.

Yana bir yangilik — xalqaro kasb tanlovlarida gʻolib boʻlgan davlat va xususiy texnikum oʻquvchilari 100 million soʻmdan, ularni tayyorlagan ustozlari 50 million soʻmdan mukofot oladi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni mukammal biladigan yoshlarimiz soni 650 mingdan oshdi. Ularga buyuk tariximiz, boy madaniyi merosimiz toʻgʻrisida xorijiy tillarda kontent tayyorlashni oʻrgatsak, ular yurtimizning turizm salohiyatini targʻib qilishga katta hissa qoʻshib, yuqori daromadga ham ega boʻladi. Shu maqsadda Raqamli kontent platformasini ishga tushirib, har yili 20 milliard soʻmdan ajratib boramiz.

Hozirgi vaqtda 150 mingdan ziyod yoshlarimiz xorijda taʼlim olyapti, ilm-fan bilan shugʻullanmoqda. Yurtimizning turizm va eksport salohiyatini oshirishda bu yoshlarning imkoniyatlaridan foydalanib, ularning oʻziga ham daromad keltiradigan tizim yaratamiz.

Bunda Turizm qoʻmitasi (A.Aqqulov), Savdo-sanoat palatasi (D.Vahobov), Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi (N.Xolmurodov), 9 ta sanoat uyushmasi rahbarlari 10 ming talabani turoperator, sanoat korxonalari va eksportchilarga bogʻlab, ularga grant ajratadi. Talabalar esa oʻzi oʻqiyotgan davlatdagi bozor, mahsulot va xizmatlarga talabni tahlil qilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yetkazadi.

Milliy aviakompaniyamizning 26 ta davlatda vakolatxonasi va aeroportlarda joyi bor. Bu joylarda ham xorijda oʻqiyotgan yoshlarimiz uchun alohida sharoit yaratib beramiz. Ular yurtimiz salohiyatini namoyish etadigan stendlarni joylashtirib, turistik marshrut va mahalliy mahsulotlarni taqdimot qilib boradi.

Oliyogʻh bitiruvchisini ishga olgan tadbirkorga yosh mutaxassis uchun daromad soligʻi va ijtimoiy soliq bir yil davomida 1 foiz darajasida boʻladi. Bu — 200 mingga yaqin oliyogʻh bitiruvchisini ishga olgan tadbirkorlar uchun katta ragʻbatga aylanadi.

Umuman, yoshlarga yangi bilim, kasb va texnologiyani oʻrgatishga kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vaziri B.Zohidov, oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri Q.Sharipov, Kasbiy taʼlim agentligi rahbari A.Husanov, Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Saʼdullayev, hokimlar masʼul boʻladi.

Hozirgi paytda ijtimoiy reyestrga kirmagan, lekin ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan, harbiy xizmat va migratsiyadan, jazoni oʻtab qaytgan, jismoniy imkoniyati cheklangan yana 1 million nafar yoshlarimiz bor. Ularga ozgina yordam berilsa, hayotda oʻz oʻrnini albatta topib oladi. Shu bois, “Yoshlar daftari” transformatsiya qilinadi. Misol uchun, 38 mingdan ziyod uyushmagan yoshlarga “ustoz-shogird” anʼanasi asosida kasb-hunar oʻrgatish, ularni ishli qilish, biznesini boshlashiga koʻmaklashish boʻyicha yangi tizim yaratiladi. Bunday yoshlar bilan ishlash boʻyicha “Kafolatlangan birinchi qadam” paketi joriy etiladi. Bunda “Ustoz-talaba” dasturi asosida uyushmagan yoshlarni oʻqitib, oliygohga kirishiga koʻmaklashgan talabalarga magistraturaga kirishda qoʻshimcha ball, davlat stipendiyalarini olishda yengillik beriladi.

Hozirgi kunda savdo, servis, ishlab chiqarish sohalarida oʻz brendiga ega boʻlgan minglab yoshlarimiz bor. Ular uyushmagan tengdoshlariga biznesni oʻrgatsa, oʻz brendi asosida ishlashga sharoit yaratib, daromad topishiga koʻmaklashsa, juda minnatdor boʻlardim. Shu maqsadda “Yoshlar mini-

franshizasi” dasturini ishga tushiramiz. Ularga faoliyatini kengaytirish uchun imtiyozli shartlarda yer va kredit beriladi. Mahalliy brendlar franshizasini oladigan yigit-qizlarga Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasidan 300 million soʻmgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Bu dasturlarni moliyalashtirish uchun 500 milliard soʻm yoʻnaltiriladi.

Yoshlar uchun kasb va til oʻrganish, ishga joylashish, tadbirkorlik boʻyicha oʻnlab xizmatlar mavjud. Bu xizmatlardan “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanish uchun “Yoshlar xablari” tashkil etiladi. Ushbu tajribani Surxondaryo viloyatidan boshlab, boshqa hududlarda ham bosqichma-bosqich ommalashtiramiz.

Hozirgi vaqtda 87 ming davlat xizmatchisidan 16,5 ming nafarini 30 yoshgacha boʻlganlar tashkil qiladi. Shundan 902 nafari rahbarlik lavozimida ishlamoqda. Salohiyatli yoshlarimiz juda koʻp. Vazir va hokimlar yoshlarga ishonch bildirib, masʼuliyatli lavozimga qoʻyishdan choʻchimasligi kerak.

Shu maqsadda yosh liderlarni aniqlash boʻyicha 5 ta yoʻnalishda “TOP-100” dasturini amalga oshiramiz. Dastur doirasida “yangi iqtisodiyot”, IT va sunʼiy intellekt, taʼlim, tibbiyot va qishloq xoʻjaligi boʻyicha yurtimizdagi yoshlar va chet eldagi vatandoshlarimiz uchun ochiq tanlov eʼlon qilinadi. Har ikki yilda bir marta oʻtadigan va tanlovning 100 nafar gʻolibi 50 million soʻmdan mukofotlandi va rahbarlik lavozimiga tayinlanadi.

Yaqinda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkilotining tanlovida gʻolib boʻlgan 50 nafar iqtidorli oʻgʻil-qizimiz ushbu tashkilotning dunyodagi ofislariga stajirovkaga yuboriladi. Ular stajirovka dasturini muvaffaqiyatli tamomlaganidan keyin mazkur xalqaro tashkilotga ishga joylashish imkoniyatiga ega boʻladi.

Har bir vazirlik va tarmoq oʻz yoʻnalishida “TOP-100” iqtidorli yoshlar dasturini boshlaydi. Masalan, iqtisodiyot va moliya vaziri J.Qoʻchqorov — 100 nafar moliyachi va iqtisodchi; suv xoʻjaligi vaziri Sh.Hamrayev — 100 nafar yosh suv innovatori; energetika vaziri J.Mirzamahmudov — 100 nafar yosh energetik; qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vaziri Sh.Hidoyatov, urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qoʻmitasi raisi Sh.Qudbiyev — 100 nafar yosh quruvchi, arxitektor va urbanistni saralab, oʻz yoʻnalishidagi xalqaro tashkilotlarga stajirovkaga yuboradi.

Vazirlar Mahkamasi va Prezident Administratsiyasi vazirliklar uchun yiliga 2 ming nafar yoshni xalqaro tashkilotlarga stajirovkaga yuborish boʻyicha rejani tasdiqlab, ijrosini nazorat qiladi.

Biz yoshlar balarisida 14 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan 9 million 300 ming nafar yoshlarning bazasini shakllantirdik. Endi ularning yutuqlarini yaxlit portfolio shaklida yuritadigan elektron tizimga oʻtamiz. Bunda “Oʻzbekiston yoshlar ligasi” platformasi ishga tushiriladi. Oʻgʻil-qizlarimiz oʻz natijasini platformaga kiritadi. Bu maʼlumotlar vazirliklar tomonidan oʻrganiladi va yoshlarga ball beriladi. Yuqori ball toʻplagan oʻgʻil-qizlarimizga taʼlimda — grant, kontraktga chegirma, kasb oʻrganishga vaucher beriladi, xorijda oʻqish puli qoplanadi; tadbirkorlikda — imtiyozli kredit olish, akselerator dasturida qatnashish imkoni yaratiladi; ish joyida — xorijiy stajirovka tashkil etiladi, davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasiga kiritiladi; uy-joy olishda — imtiyozli ipoteka ajratiladi. Yil yakunida eng yuqori natijalarga erishgan yoshlar tantanali ravishda taqdirlanadi.

Umuman, “Oʻzbekiston yoshlar ligasi” barcha maktab va texnikum oʻquvchilari, yurtimizda va xorijiy oliyoghlarda oʻqiyotgan va ilm-fan bilan shugʻullanayotgan yigit-qizlarimiz, davlat va xususiy sektorda ishlayotgan yoshlarimizni; chet eldagi vatandoshlarimizning farzandlarini Yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida birlashtiradigan umummilliy harakatga aylanadi.

Bu masalaga Prezident Administratsiyasi rahbari oʻrinbosari I.Sirojev, oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri Q.Sharipov va Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Saʼdullayev masʼul boʻladi.

Hozirgi paytda 14 mingdan ortiq oʻgʻil-qizlarimiz AQSH, Yevropa, Yaponiya, Xitoy, Koreyaning yetakchi oliyoghlariida taʼlim olmoqda. Bunday yoshlar taʼilda yurtimizdagi vazirlik, hokimlik, davlat va xususiy kompaniyalarda amaliyot va stajirovka oʻtashi uchun sharoit yaratamiz.

Buning uchun bir oyda ish beruvchilar va xorijda oʻqiyotgan talabalarni bir-biri bilan bogʻlaydigan raqamli muloqot platformasi ishga tushiriladi.

Shuningdek, “El-yurt umidi” jamgʻarmasi hisobidan har yili 700 nafarga yaqin oʻgʻil-qizlarimiz dunyoning “TOP” oliyoghlariga yuborilmoqda. Biz islohotlarimizning ilk bosqichida iqtidorli yoshlarimizni asosan davlat tashkilotlarida ishlab berish sharti bilan chet elga oʻqishga yubordik. Xususiy sektorda ham bunday kadrlarga ehtiyoj kundan-kunga ortib boryapti. Endi yoshlarimiz “El-yurt umidi” jamgʻarmasi orqali xususiy sektor buyurtmasi asosida ham nufuzli xorijiy oliyoghlarda oʻqishi mumkin boʻladi.

Ana shu masalalarning ijrosini Boshqaruv samaradorligi agentligi (U.Husainov), “El-yurt umidi” jamgʻarmasi (G.Ismoilova) va Savdo-sanoat palatasi (D.Vahobov) tashkil qiladi.

Yuqoridagi tashabbuslarni moliyalashtirish uchun kelgusi uch yilda 1,5 trillion soʻm ajratamiz. Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Zohidov) yil yakunigacha ushbu maqsadlar uchun chetdan yana 100 million dollar olib keladi.

Hurmatli yigʻilish qatnashchilari!

Yurtimizda odamlarni ishli qilib, yuqori iqtisodiy oʻsishni taʼminlashga xizmat qilayotgan eng asosiy qatlam bu — tadbirkorlar. Ularning orasida bilimli va tashabbuskor yoshlarimiz bor ekan, bizni hech kim hech qachon rivojlanishdan toʻxtata olmaydi.

Eʼtibor bering, hozirgi vaqtda yillik aylanmasi 500 milliard soʻmdan oshgan yosh tadbirkorlarimiz soni — 15 nafarga; 100 milliard soʻmdan oshgani — 194 nafarga; 50 milliard soʻmlik marradan oʻtganlari 68 nafarga yetdi. Bundan 8-9 yil ilgari yoshlarimiz katta korxonalarga rahbarlik qiladi, milliard-milliard soʻmlik mablagʻni boshqaradi, desa kim ishonardi?

Bunday “yosh chempion tadbirkorlarimiz” safi kengayishi uchun oʻgʻil-qizlarimizni yangi — “Bilimlar iqtisodiyoti”ga oʻrgatishimiz zarur.

Endi yoshlarimizni muvaffaqiyatli biznes sari yetaklaydigan yigʻi tizimini yoʻlga qoʻyamiz. Milliy bank va Aloqabankda yoshlar biznesiga masʼul oʻrinbosar lavozimi joriy etiladi va ular Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasiga hamrais boʻladi. Bank-moliya akademiyasi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish boʻyicha “aql markazi” sifatida belgilanadi. Bundan buyon akademiya tinglovchilari hududlarda yoshlar va tadbirkorlar bilan uchrashadi va tayyor biznes loyihalarni shakllantiradi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasi (A.Saʼdullayev, A.Mirsoatov, K.Irisbekova) tayyor loyihani biznes rejasi bilan qulay shartda yoshlarga taklif qiladi. Endi bu Jamgʻarma yoshlarning yuqori daromad keltirib, koʻplab ish oʻrni yaratadigan loyihalariga 5 milliard soʻmgacha investitsiya kiritadi. Eng yaxshi loyihalar akademiya tinglovchilarining magistrlik dissertatsiyasi sifatida qabul qilinadi. Bunday loyiha mualliflari hududiy bank rahbari va hokimlarning iqtisodiyot boʻyicha oʻrinbosari lavozimlariga eng birinchi nomzod boʻladi.

Ushbu tizim kamida 300 ming nafar yoshlarimizga oʻz biznesini boshlashi uchun yoʻl ochadi. Buning uchun Milliy bank (A.Mirsoatov) chetdan 200 million, Aloqabank (K.Irisbekova) 50 million dollar olib keladi.

J.Qoʻchqorov, ushbu 2 ta bank rahbari, A.Saʼdullayev yuqoridagi tashabbuslar orqali yoshlar tadbirkorligini yangi bosqichga olib chiqishga masʼul boʻladi va yil yakunida bu boʻyicha batafsil hisobot beradi.

Aziz doʻstlar!

Biz 2030-yilgacha iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirishni reja qilganmiz. Bunga erishish uchun barcha sohalarga yangi gʻoya olib kiradigan innovatsion startaplar kerak.

Soʻnggi toʻqqiz yilda mahalliy startap ekotizimi 15 barobar oʻsib, 4 milliard dollardan oshdi. Venchur jamgʻarmalar soni 23 taga, ularning umumiy kapitali 200 million dollarga yetdi. Oʻtgan davrda 1 ming 200 dan ziyod istiqbolli startap loyihalar paydo boʻldi. Bu yoʻnalishda 3 mingdan ziyod yoshlarimiz yuqori daromad topmoqda.

Ushbu yoʻnalishdagi ishlarimiz xalqaro tashkilotlar tomonidan ham eʼtirof etilmoqda. “Global startap indeksi”da Oʻzbekiston 31 pogʻona yuqori koʻtarilib, dunyoda eng tez

rivojlanayotgan startap ekotizimi, “2026-yil mamlakati” deb eʼlon qilingani ham buning yaqqol isbotidir.

Hali bu sohada juda katta imkoniyatlar bor.

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Zohidov) yoshlar startaplari uchun 5 million dollarlik, Namangan viloyati hokimi (Sh.Abdurazzoqov)ning 5 milliard soʻmlik venchur jamgʻarma ochish haqidagi tashabbusi menga maʼqul boʻldi.

Endi har bir vazir, tarmoq rahbari va hokimlar “1 mingta masalaga — yoshlardan 1 mingta yechim” loyihasini ishga tushiradi. Bunda har bir rahbar oʻz tizimidagi dolzarb muammolarni ochiq platformada joylashtirib, eng yaxshi yechimlar uchun mukofot eʼlon qiladi. Buning uchun har bir vazir va hokim kamida 10 milliard soʻmlik venchur jamgʻarma tashkil etadi. Ushbu mablagʻlar gʻoliblarni mukofotlash va 20 tadan eng yaxshi startapning gʻoyadan amaliyotgacha boʻlgan barcha bosqichlarini moliyalashtirishga sarflanadi.

Yoshlar ishlari agentligi biznes, IT, kreativ iqtisodiyot yoʻnalishida 100 ta eng yaxshi loyihani tanlab, ularga 1 milliard soʻmgacha investitsiya kiritadi.

Biz Raqamli hukumat markazida birinchi superkompyuter klasterini ishga tushirdik. Kelgusi yil klaster quvvatini 3kara oshiramiz. Joriy yil 20 ta oliygohda sunʼiy intellekt laboratoriyasi tashkil etiladi. Yoshlarimiz tarmoq va hududdagi masalalarga sunʼiy intellekt orqali yechim topishda ushbu superkompyuter va laboratoriyadan bepul foydalanadi.

Soʻnggi yillarda Toshkent, Nukus, Qarshi, Termiz, Urganch, Fargʻona shaharlarida zamonaviy IT parklarni ishga tushirdik. Oʻtgan hafta Yangi Namanganda yana bir yirik loyihaga start berildi. Andijon, Samarqand, Jizzax, Buxoro, Guliston, Chirchiq, Nurafshton, Navoiy shaharlarida ham umumiy maydoni 100 ming kvadrat metr boʻlgan yirik IT parklar barpo etish boshlanmoqda. Bularning hisobiga 20 mingdan ziyod oʻgʻil-qizlarimiz uchun yuqori daromadli ish oʻrinlari yaratiladi.

Bizning maqsadimiz aniq — IT va sunʼiy intellekt boʻyicha yosh liderlar korpusini yaratish.

Bu sohalarida eng asosiy ish quroli nima? Albatta, kompyuter. Shu bois, “Mening birinchi kompyuterim” dasturini boshlab, ehtiyojmand oilalardagi 10 ming nafar yoshlarga noutbuk olish xarajatining yarmi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamgʻarmasi hisobidan qoplab beriladi, qolgan qismiga esa uch yilda boʻlib toʻlash sharti bilan foizsiz ssuda ajratiladi.

Endi IT va sunʼiy intellekt sohalari uchun kadr tayyorlaydigan oliyoghlarning uchinchi kurs talabalari IT parkda dual taʼlim asosida oʻqishni davom ettiradi.

Bu yoʻnalishlardagi iqtidorli talabalar uchun Muhammad al-Xorazmiy nomidagi davlat stipendiyasini joriy etsak, nima deysizlar?

Iqtidorli qizlarimiz uchun muhandislik, IT va sunʼiy intellekt yoʻnalishlari boʻyicha “Muhandis qizlar” stipendiyasini taʼsis etamiz. Yangi oʻquv yilidan boshlab toʻlanadigan ushbu stipendiyalar xususiy oliygoh talabalarga ham beriladi.

Bugungi kunda kimyo, biologiya, fizika, matematika va informatika fanlari boʻyicha nufuzli xalqaro olimpiadalar gʻoliblari 1 milliard soʻm, ularning ustozlari 200 million soʻm mukofot olmoqda. Endi bu ragʻbatlantirish mexanizmi sunʼiy intellekt boʻyicha xalqaro olimpiada gʻoliblariga ham tatbiq etiladi.

Ikki yil oldin Xorazmda “Al-Xorazmiy vorislari” loyihasini boshlab, 4 mingdan ortiq iqtidorli oʻquvchilarni xorijiy til va IT boʻyicha oʻqitishni yoʻlga qoʻygan edik. Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov bu loyihani joriy yildan viloyatlar markazlari va Qoraqalpogʻistonning barcha tumanlarida, kelgusi yillardan boshlab barcha tuman va shaharlarda ishga tushirib, 50 ming nafar yoshni unga qamrab oladi.

Aziz yurtdoshlar!

Biz yoshlarimizda milliy ruhni shakllantirish, ularning qalbiga vatanga muhabbat, el-yurtga hurmat hissini singdirish toʻgʻrisida koʻp gapiryapmiz. Bu — juda dolzarb masala.

Ochiq aytishimiz kerak, bugungi kunda yoshlarimiz asosiy vaqtini raqamli makonda oʻtkazmoqda. Birgina misol, oʻtgan yili 84 million dollarlik kompyuter va mobil oʻyinlar eksport qilindi.

Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov viloyat hokimlari bilan birga

barcha 15 ta IT park hududida kompyuter va mobil oʻyinlar yaratuvchilari uchun inkubatsion markaz ochib, milliy ruhdaagi oʻyinlarni koʻpaytirish boʻyicha yangi tizimni yoʻlga qoʻyadi.

Shu bilan birga, har yili kamida 20 ta milliy ruhdaagi kompyuter va mobil oʻyinlar yaratish boʻyicha davlat buyurtmasi berib boriladi. Buning uchun yiliga 10 milliard soʻm yoʻnaltiramiz.

Umuman, yoshlarning IT, sunʼiy intellekt va startap loyihalarini amaliyotga joriy qilishga Prezident Administratsiyasi departament boshligʻi B.Xodjayev, raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov, Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Saʼdullayev masʼul boʻladi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlardan hech bir oʻgʻil-qizimiz chetda qolmasligi kerak. Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Saʼdullayev, Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi oʻrinbosari Sh.Mirziyoyeva bu yil “Vatan mehri — ijtimoiy tashabbuslar” tanlovini oʻtkazib, aholi muammolari boʻyicha eng yaxshi yechim bergan volontyorlar va 50 ta ijtimoiy loyiha muallifini taqdirlaydi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M.Olloyorov), Ichki ishlar vazirligi (A.Toshpoʻlatov), Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi (E.Karimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Saʼdullayev) ijtimoiy xavf guruhidagi bolalarni qoʻllab-quvvatlash uchun “Qanot” loyihasini ishga tushiradi. Ushbu loyiha bunday yoshlarni ijtimoiy xizmatlar, taʼlim, sport, musiqa va sanʼatga yoʻnaltirib, qayta huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Iyun oyida oʻtkazilgan “Yoshlar tashabbuslari marafoni”da yoshlarimiz tomonidan ilm-fan, madaniyat, biznes, startap, sunʼiy intellekt yoʻnalishlarida loyihalar boʻyicha minglab takliflar ilgari surildi.

Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Saʼdullayev bir hafta muddatda “Tashabbuslar ofisi”ni tashkil qilib, har bir gʻoyani — loyihaga, mahsulotga va xizmatga aylantirish boʻyicha ishlarni boshlaydi. Buning uchun 50 milliard soʻm ajratiladi.

Hurmatli yigʻilish qatnashchilari!

Bugun narkotik va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlar aholi genofondiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday jinoyatlarning uchdan biri yoshlar tomonidan sodir etilayotgani juda xavotirli. Shu bois, Oʻzbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasini umummilliy harakatga aylantirib, bu yoʻlda katta kuch va vositalarni safarbar qilyapmiz.

Yaqinda ushbu jinoyatlarga nisbat

QURILISH MATERIALLARI SANOATI

YUQORI BOSQICHGA OLIB CHIQILADI

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish va tarmoqning iqtisodiyotdagi o‘rni mustahkamlash hamda kelgusi yillardagi ustuvor vazifalar atroficha muhokama qilindi. Mazkur yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar va belgilab berilgan topshiriqlar nafaqat qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari, balki butun qurilish majmuasi oldida yangi mas’uliyat va imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Bugungi kunda qurilish mamlakat iqtisodiyotining eng faol va eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri. So‘nggi yillarda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, zamonaviy uy-joylar, sanoat korxonalari, ijtimoiy soha infratuzilma obyektlari va yangi shaharlar barpo etilishi qurilish materiallariga talabni keskin oshirdi. Natijada qurilish materiallari sanoati endilikda oddiy ishlab chiqarish tarmog‘i emas, balki iqtisodiy o‘shining muhim drayveriga aylanmoqda.

Prezidentimiz yig‘ilishda ta’kidlaganidek, bundan 10 yil avval mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qurilish materiallari assortimenti ancha cheklangan edi. Asosan g‘isht, sement, qum-shag‘al, oyna va shifer kabi mahsulotlar ishlab chiqarilar, ular qurilishda foydalaniladigan materiallarning atigi 30-40 foizini qamrab olardi. Bugungi kunga kelib esa vaziyat tubdan o‘zgardi. Sohaga 12 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb qilinib, 4 mingdan ziyod zamonaviy korxona tashkil etildi. Natijada sement, bazalt, gazoblok, keramik buyumlar, quruq qurilish qorishmalari, energiya tejamlor materiallari va boshqa ko‘plab mahsulotlar bo‘yicha ichki talabni to‘liq qoplaydigan quvvatlar yaratildi.

Eng muhimi, bugun yangi uy-joylar, infratuzilma obyektlarini qurishda foydalanilayotgan materiallarning qariyb 98 foizi yurtimizda ishlab chiqarilmoqda. Bu esa nafaqat import o‘rni bosish, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda tarmoqdagi ishlab chiqarish hajmi 7 trillion so‘mdan 53 trillion so‘mga yetgani, eksport hajmi esa 1,2 milliard dollarga chiqqani buning yaqqol tasdiq‘idir.

Ayni paytda soha vakillari oldida yanada ulkan vazifalar turibdi. Aholini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan uzoq muddatli dasturda 2040-yilgacha quriladigan uy-joylar sonini 2 barobar oshirish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 120 taga yetkazish belgilangan. Bundan tashqari, har yili o‘nlab million kvadrat metr tijorat va sanoat obyektlari foydalanishga topshirilmoqda. Bularning barchasi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda.

Videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari tomonidan alohida e’tibor qaratilgan masalalardan biri sifat va standartlar bo‘ldi. Endi qurilish materiallari sanoati faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki mahsulot sifatini, energiya samaradorligi, ekologik xavfsizligi va xalqaro standartlarga mosligi bilan ham raqobatlashishi lozim. Ayniqsa, atom



Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, bino fasadi va tom qismini issiqlik saqlovchi zamonaviy materiallar bilan qoplash hamda energiya tejamlor oynalar o‘rnatish orqali energiya sarfini 30 foizgacha kamaytirish mumkin. Bu esa bugungi sharoitda nihoyatda muhimdir.

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida amalga oshirilayotgan tajriba loyihasi aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajribalar

manfaatlariga xizmat qiladigan infratuzilma, avvalo, sifatli qurilish materiallaridan boshlanadi. Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish esa yangi O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining mustahkam poydevorini yaratadi.

Sherzod HIDOYATOV,
qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri

“YASHIL” IQTISODIYOT ni qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifa

Nilufar DEHQONOVA,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Insoniyot taraqqiyoti va taqdiri bevosita tabiiy resurslar bilan uzviy bog‘liq. Unga talabning muttasil o‘rtib borishi, shubhasiz, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi va ko‘plab ekologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bugun dunyo mamlakatlari buni to‘g‘ri anglagan holda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Iqtisodiy o‘shining ushbu yangi modeli, birinchi navbatda, global ekologik muammolarni hal qilish, jamiyatning o‘sib borayotgan farovonligi va sayyoramizning tabiiy resurslari o‘rtasidagi muvozanatni topish hamda saqlashga xizmat qiladi.

Jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishlarini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri sifatida tan olmoqda. Mutaxassislar fikricha, global isishning oldini olish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri iqtisodiyotni yashillashtirishdir. Bu borada mamlakatimizda ham aniq chora-tadbirlar belgilanib, amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Xususan, sohaga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha

30 foiz kamaytirish maqsadi ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, yiliga 200 million tup ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliard tupdan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish, o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrda



O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur jarayonning mantiqiy davomi sifatida yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida ijrosini ta’minlashga qaratilgan muhim tarixiy hujjatdir.

Qaror bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shini ta’minlash dasturida qator muhim strategik maqsadlarga erishish ko‘zda tutilgan. Xususan, Parij kelishuvi majburiyatlariga sodiq qolgan holda issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foiz qisqartirish mas’uliyati yuklatilmoqda.

Ushbu maqsadlar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish quvvatini 15 gigavattga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizdan ko‘proqqa yetkazish vazifalari belgilanmoqda.

Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foiz oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmi, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga

ko‘proqqa yetkazish mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi global tendensiyalar ekologik sug‘urta va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali ekologik investitsiyalarni jalb etish ko‘lami kengayayotganini ko‘rsatmoqda. Yevropa Ittifoqi davlatlari hamda Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur kabi mamlakatlarda “yashil” moliya siyosati iqtisodiy dasturlar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalar milliy darajadagi barqaror rivojlanish strategiyalari uchun juda muhim.

Yaqinda o‘tkazilgan V Toshkent xalqaro investitsiya forumida davlatimiz rahbari ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish uchun qator ustuvor yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tdi. Xususan, ushbu ustuvorlikda to‘rtinchi yo‘nalish “yashil” energetika va sun‘iy intellekt sohasidagi sheriklikni yanada chuqurlashtirish ekaniga alohida urg‘u berdi.

Jumladan, Prezidentimiz bunday dedi: “Xabaringiz bor, “yashil” energetikaga katta e’tibor berib kelyapmiz. Yaqin yillarda umumiy elektr generatsiyasida uning ulushini 54 foizga yetkazishni reja qilganmiz. Investorlarga quyosh va shamol elektr stansiyalari bilan bir qatorda energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, “yashil”

energiya asosida ishlaydigan data markazlar barpo etish taklifini ilgari suramiz. Sun‘iy intellekt tarmog‘ini rivojlantirish — davrimizning muhim talabi. Xorijiy ekspertlar O‘zbekistonda kelgusi besh yilda ushbu yangi yo‘nalishda kamida 10 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratilishini prognoz qilyapti. Sun‘iy intellektni barcha sohalarga keng joriy etish uchun eng ilg‘or tajribalar asosida Milliy strategiyani qabul qildik. Uning doirasida “Besh million yetakchi” dasturi boshlandi. Asosiy vazifamiz sun‘iy intellekt orqali aholining barcha qatlamlari hayotini yaxshilash, undan ta’lim, davlat xizmatlari va biznes jarayonlarida keng foydalanishdan iborat. Biz Qoraqalpog‘istonda sun‘iy intellekt loyihalari va data markazlar uchun maxsus zona yaratdik. Bu hududda 2040-yilgacha investorlar barcha turdagi soliq va bojlardan ozod qilinadi, yo‘l, elektr, suv infratuzilmasi davlat hisobidan qurib beriladi, 1 kilovatt-soat elektr energiyasi uchun 5 sent miqdorida imtiyozli tarif belgilanadi. Shu bilan birga, maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan O‘zbekiston xalqaro raqamli texnologiyalar markazini ham tashkil etyapmiz”.

Shu nuqtayi nazardan, forumda qatnashgan xorijiy investorlardan biri — ACWA kompaniyasi rahbari O‘zbekiston “yashil” energetika taraqqiyotiga qadam qo‘ygan ilk vaqlaridanoq asosiy hamkorlardan biri sifatida yirik loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotganidan mamnunligini bildirdi.

O‘zbekiston ham Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinчилardan bo‘lib “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘lini tanladi va bunga faol kirishdi. Sohaga xalqaro tajribalar, ilg‘or texnologiyalar va yirik investorlar jalb qilindi. Investorlar ushbu loyihalar kelajagiga, hamkorlik istiqbollarga, taklif etilgan imkoniyat va sharoitlarga ishonch bildirib, samaroya kiritmoqda. Bugun ACWA kompaniyasi O‘zbekistonning “yashil” energetika sohasidagi eng yirik investorlaridan. Kompaniya 15 mamlakatlarda 110 ta loyihada 120 milliard dollardan ortiq qiymatdagi aktivlarni boshqarib kelmog‘da. Bu loyihalarning umumiy ishlab chiqarish quvvati 95,7 gigavatt bo‘lib, uning yarmidan ko‘pi qayta tiklanuvchi energiya manbalarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston bilan hamkorlik o‘tgan qisqa muddatda ACWA kompaniyasining xalqaro o‘sh strategiyasida markaziy o‘rin egalladi. Kompaniyaning mamlakatdagi 19 ta loyihaga kiritgan va rejadagi investitsiyalari hajmi 15 milliard dollarga yetdi. Bu qayta tiklanuvchi energiya yo‘nalishidagi eng yirik xususiy energetika portfelidir. Bugunga qadar O‘zbekistonning turli hududlarida o‘nlab quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilib ishga tushirilgan bo‘lsa, yana bir qancha loyihalar faol davom ettirilaypti.

“Yashil” iqtisodiyotni xalqaro miqyosda qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy omillaridan.



HOSILDORLIKNI TO‘RT BAROBARGACHA OSHIRISH IMKONIYATI BOR

Iqlim o‘zgarishi global muammoga aylangan bugungi kunda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish eng dolzarb vazifalardan. Tabiiy suv zaxiralari cheklangani, aholi soni va iste‘mol hajmining muttasil o‘rtib borishi, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlaridagi yuqori o‘shish sur‘ati suvga talabni yil sayin oshirmoqda.

Ayni paytda dunyo aholisi, jumladan, O‘zbekistonda nufus ko‘payishi oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojini ham oshirmoqda. Biroq oziq-ovqat yetishtirishning asosiy manbasi bo‘lgan suv resurslari kamayib borayotgan sharoitda obiyahotdan samarali va tejamlor foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ko‘plab mamlakatlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda suv resurslarining qariyb 90 foizi qishloq xo‘jaligi ehtiyoji uchun sarflanadi. So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan suv resurslaridan samarali foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha

keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 10-iyuldagi tegishli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydonlarni 2030-yilga qadar 2 million gektarga yetkazish vazifasi belgilangan. Shuningdek, keyingi yillarda qabul qilingan qator farmon va qarorlarda ham suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish va yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.



Davlatimiz rahbarining 2026-yil 8-maydagi “Lalmi va yaylov yer uchastkalarini foydalanishga kiritishni rag‘batlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2026-yil 25-maydagi “Sel-toshqin suvlaridan samarali foydalanishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida lalmi va yaylov yerlaridan samarali foydalanish, sel-toshqin suvlarini jamg‘arish va ulardan qishloq xo‘jaligida keng

foydalanish bo‘yicha muhim vazifalar qayd etilgan.

Bugun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri resurstejamlor texnologiyalarni joriy etishdir. Ayniqsa, lalmikor maydonlarda yomg‘ir va sel suvini jamg‘arish hamda undan qo‘shimcha sug‘orish manbasi sifatida foydalanish yuqori samara bermoqda.

Dehqonchilikning asosiy vazifasi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash. Buning uchun o‘simliklar uchun zarur yorug‘lik, issiqlik, havo, suv va ozuqa omillari yetarli bo‘lishi lozim. Ushbu omillardan birortasi yetishmasligi o‘simlik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, hosildorlikning pasayishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va barqarorlikni ta’minlashning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekinlarni intensiv usulda yetishtirish, ekinlar parvarishi uchun sarflanayotgan moddiy va moliyaviy resurslarning imkon qadar yuqori samaradorligiga erishishdir. Jumladan, lalmikor maydonlardan yuqori va barqaror hosil yetishtirishda yomg‘ir va sel suvini jamg‘arib, ekinlarni yomg‘irliat sug‘orish tizimini qo‘llash — eng samarali usul.

Mamlakatimiz hududidagi lalmikor maydonlarda yetishtiriladigan boshqoqli, dukkakli don va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi asosan ob-havo sharoitiga bog‘liq. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, so‘nggi 44 yilda lalmi maydonlarda havo harorati o‘rtacha 1,7 daraja oshgani, yog‘ingarchilik miqdori 41,9 millimetrga hamda havoning nisbiy namligini 19 foiz kamaygani kuzatilgan.

Ayni maqsadda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida Innovatsion rivojlanish agentligi granti doirasida “Lalmikor maydonlarda don va dukkakli ekinlarni yetishtirishda yomg‘ir va kichik sel suvlaridan samarali foydalanish

texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

Tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishning yuqori samaradorligini ko‘rsatmoqda. Xususan, 2025-yilda yog‘ingarchilik miqdori 320,5 millimetr bo‘lgan sharoitda “qizil don” navli yumshoq bug‘ do‘yda may oyida sun‘iy havzalarga jamg‘arilgan yomg‘ir va sel suvi asosida yomg‘irliat sug‘orish qo‘llanganda gektaridan 15,2 sentner hosil olindi. Bu ko‘rsatkich an’anaviy usulda yetishtirilgan hosilga nisbatan 3-4 barobar yuqori bo‘lib, hosildorlikning 272-353 foiz oshishini ta’minladi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, tog‘ va tog‘oldi hududlardagi lalmi yerlarda yomg‘ir va sel suvini jamg‘arish hamda ulardan samarali foydalanish texnologiyalarini keng joriy etish suv resurslaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda lalmikor yerlar samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bunyod MAMARAHIMOV,
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori



Shavkat ORTIQOV,
O'zbekistonning
TURKSOYdagi vakili

TURKSOY Doimiy kengashining 2025-yil noyabrda Qozog'istonning Aqtau shahrida bo'lib o'tgan 42-yig'ilishida "Andijon — 2026-yilda turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" deb e'lon qilindi.

Shu munosabat bilan joriy yilda o'tkaziladigan xalqaro tadbirlar oldidan Andijonning Bobur shahridagi amfiteatrdan tantanali ochilish marosimi tashkil etildi. Unda qator qardosh o'lkalar madaniyat vazirlari va ularning o'rinbosarlari, TURKSOY bosh kotibi, ko'plab xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari, faxriylar, yoshlar qatnashdi.

Prezidentimiz Andijon shahrining "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" deb e'lon qilinishi doirasida o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlar ishtirokchilariga tabrik yo'lladi. Bu nafaqat ushbu marosimning nufuzini oshirdi, balki O'zbekistonning turkiy dunyo birligiga, hamjihatligiga, qolaversa, TURKSOY faoliyatiga naqadar katta e'tibor qaratayotganining yorqin tasdiqi bo'ldi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, Andijon shahrining bunday yuksak sharafiga munosib ko'rilgani O'zbekistonning boy tarixi, madaniy-ma'naviy merosi, yurtimizning turkiy madaniyat rivojiga qo'shgan bebaho hissasi, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqaro miqyosdagi yana bir e'tirofidir.

So'nggi yillarda Prezidentimizning qat'iy siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlagan oqilona siyosati tufayli O'zbekiston turkiy olamda hamjihatlikni mustahkamlash, qardosh xalqlar o'rtasidagi azaliy rishtalarni yangi bosqichga olib chiqishda faol tashabbuskorlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Faoliyatim sabab turkiy olamga daxldor juda ko'plab xalqaro madaniy tadbirlar, ilmiy anjumanlar, uchrashuv va mulqotlarda qatnashaman. Ana shunday nufuzli tadbirlarda

XALQARO MIQYOSDAGI YANA BIR YUKSAK E'TIROF

shaxsan guvohman: O'zbekistonning bugungi shiddatli taraqqiyot yo'li, inson manfaatlarini ta'minlash, sohalar rivojiga qaratilayotgan e'tibor havas bilan tilga olinadi. Tanaffuslarda, bir finjon qahva ustidagi suhbatlarda ham tanqlik ekspertlar, rasmiy doira vakillariga o'zinni O'zbekiston vakili sifatida tanishtirganimda chehralarga darrov tabassum yugurib, ko'proq gaplashishga oshiqadi. Yurtimiz haqida fikr bildirganda, "Shavkat Mirziyoyev — bugungi davrning juda kuchli va donishmand siyosatchisi. Xalqini o'ylaydigan, uning manfaatlarini va farovonligi uchun qayg'uradigan, mamlakatini jahonga ochgan va turkiy dunyo birligiga ulkan ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan zamonamizning buyuk davlat arbobidir. Shunday lideringiz borligi bilan haqli ravishda faxrlansangiz arziydi", degan e'tiroflarni eshitamiz.

Albatta, bunday gaplardan qalbimiz cheksiz g'ururga to'ladi. Shu bilan birga, nafaqat faxrlanish, balki zimnamizda juda katta mas'uliyat turganini ham qayta va qayta his qilamiz. Andijondagi tantanali ochilish marosimida so'zga chiqqan TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev mamlakatimizdagi yangilanishlar jarayoni haqida samimiy fikrlarini bildirib, jumladan, bunday dedi:

"So'nggi yillarda hurmatli Prezident Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekistonda olib borilayotgan tarixiy islohotlarni, barcha sohada erishilayotgan ulkan natijalarni biz, qardosh xalqlar katta xursandchilik bilan kuzatib bormoqdamiz.



Bugun nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun turkiy dunyoda mutlaqo yangi, samimiy va do'stona muhit yuzaga kelishida, qardoshlik munosabatlari mustahkamlanishida O'zbekistonning roli va ahamiyati beqiyos.

Yangi O'zbekistonning jahondagi o'rni tobora yuksalib borayotgani, ayniqsa, inson ongi va tafakkurini tarbiyalaydigan madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini rivojiga katta e'tibor berilayotgani, ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani TURKSOY oilasi sifatida bizni ham nihoyatda quvontirmoqda.

Birgina misol keltirmoqchiman. Yaqinda Shavkat Mirmonovich O'zbekiston madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan tarixiy uchrashuv o'tkazdi. Biz ham ushbu uchrashuv tafsilotlarini katta qiziqish bilan kuzatdik. Unda sohadagi muammolarga yechim topish, adabiyot, madaniyat, san'at va kreativ iqtisodiyotda yangi bosqichga ko'tarilishga xizmat qiladigan ko'plab tashabbuslar ilgari surildi.

Ijodkorlarni va yosh iste'dodlarni har takliflar bildirildi. Ko'p o'tmay, O'zbekiston rahbarining madaniyat rivojiga qaratilgan tarixiy farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari, Shavkat Mirmonovich sohaning ko'plab ilg'or vakillarini, marhum ijodkorlarni davlat mukofotlari bilan taqdirladi.

O'zbekistonda ijod ahlining shunday buyuk homiysi, himoyachisi borki, bu nafaqat havas qilishga, balki olqishlashga arziydi!"

Mamlakatimiz Turkiy davlatlar tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lib kirganidan so'ng barcha sohalar singari TURKSOY faoliyati doirasidagi hamkorlik ham yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 10-noyabrdagi "TURKSOY tuzilmasi va faoliyat ko'rsatish prinsiplari to'g'risidagi shartnomani (Olmaota, 1993-yil 12-iyul) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonuni bilan mamlakatimizning ushbu xalqaro tashkilotdagi faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

A'zo davlatlar, jumladan, O'zbekistonda turkiy mamlakatlar madaniyati va san'ati kunlari, yoshlar va teatr festivallari, ijodiy forumlarni o'tkazish an'ana aylandi. Tashkilot doirasidagi ilmiy-ma'rifiy anjumanlar, turkiy tillar va adabiyotlar rivojiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar, madaniy tadbirlar va loyihalarda O'zbekiston vakillari faol qatnashmoqda.

O'zbekistonning o'ziga xos brendi darajasiga ko'tarilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, Xalqaro maqom san'ati anjumani, "Sharq taronolari" va "Lazgi" festivallari TURKSOYga a'zo davlatlar ijodkorlari muntazam ishtirok etmoqda.

Tashkilot tomonidan o'zbek xalqining buyuk shoirlar va mutafakkirlari, tarixiy shaxslari mavjud sanasi ham keng nishonlanmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulomning "Osmon to'la yulduzlari" asari, O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmadning tanlangan hikoyalari, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning saylanmasi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning "Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot!" kitobi va boshqa qator o'zbek adabiyoti namunalari turk tiliga tarjima qilindi.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan nashr etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildli kitoblar turkumining Anqara shahrida taqdimoti o'tkazildi.

O'tgan yili yurtimizda Turkiston jadidlik harakati asoschisi, atqoli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi keng nishonlandi. Mazkur ezgu tashabbusga TURKSOY munosib hissa qo'shish maqsadida Turkiyaning Anqara shahrida "Mahmudxo'ja Behbudiy va Turkiston jadidlik harakati" mavzusida xalqaro ilmiy anjuman tashkil etdi va uning doirasida ulug' ajdodimizning turk tilida chop etilgan tanlangan asarlarini adabiyot ixlosmandlari e'tiboriga havola qildi.

Joriy yil fevralda TURKSOY Bosh qarorgohida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi keng nishonlandi. TURKSOY, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, mamlakatimizning Turkiyadagi elchixonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Turkiya Yozuvchilar uyushmasi va Anqara ijtimoiy fanlar universiteti hamkorligida tashkil etilgan

tadbirlarda tashkilotga a'zo davlatlarning tanqli olimlari, tadqiqotchilari, shoir va yozuvchilari qatnashdi. Bu tadbir Navoiy merosini xalqaro miqyosda yanada keng o'rganish va targ'ib etishda muhim qadamlardan bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu yil Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi keng nishonlanmoqda. Xususan, 2026-yil 9-10-aprel kunlari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya yuksak saviyada o'tkazildi. Mazkur nufuzli xalqaro tadbirda TURKSOY ko'magida tashkilotga a'zo davlatlarning temurshunos olimlari va mutaxassislari faol ishtirok etdi.

E'tiborlisi, aynan ushbu xalqaro anjuman doirasida TURKSOY uchta muhim yangilikni e'lon qildi. Jumladan, O'zbekiston tomonidan nashr etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" turkumi turkiy xalqlar adabiyoti targ'ibotiga bag'ishlangan "Eng yaxshi adabiy loyiha", O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi "Turkiy dunyoning eng yaxshi muzeyi" sifatida e'tirof etilib, maxsus sertifikat topshirildi. Shu bilan birga, markazning Islom sivilizatsiyasi tarixi muzeyi TURKSOY Muzeylar birligi a'zolariga qabul qilib, maxsus sertifikat taqdim etildi.

Ilmiy-ma'naviy merosni puxta o'rganish va targ'ib etish uchun Toshkent shahrida barpo etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida TURKSOYning ofisi ochilgani ham diqqatga sazovor. Buni davlatimiz rahbari bir necha bor yuksak minbarlarda turib e'tirof etdi. Andijonga yo'llangan tabrikda ham ushbu yangilik yana bir bor tilga olindi. Ya'ni O'zbekiston TURKSOY faoliyatiga va uni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratmoqda. Mana shu e'tiborni qadrlab, Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar ijrosini ta'minlash maqsadida hozir Islom sivilizatsiyasi markazi bilan birgalikda faol hamkorlik qilmoqdamiz.

Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti doirasida Andijonda qator xalqaro tadbirlar, ilmiy anjumanlar, festivallar, uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ulardan biri — TURKSOY tashabbusi va O'zbekiston Madaniyat vazirligi hamda Andijon viloyati hokimligining qo'llab-quvvatlovi bilan "Andijon polkasi" raqsining "Ginnesning rekordlar kitobi"ga kiritilishiga qaratilgan loyihadir.

"Andijon polkasi" milliy raqs san'atimizning yorqin namunasi bo'lib, o'zining shiddatli ritmi, jo'shin harakatlari va betakror musiqasi bilan ajralib turadi. U nafaqat ijrochisiga, balki tomoshabiniga ham birdek zavq, shodlik va quvonch hissini bag'ishlaydigan betakror raqs turidir.

Andijon shahridagi "Bobur arena" stadionida tashkil etilgan ommaviy raqs natijalariga ko'ra, xalqaro hakam "Andijon polkasi" "Ginnesning rekordlar kitobi"ga kiritilganini rasman tasdiqladi va tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri hamda Andijon viloyati hokimiga bu haqdagi maxsus sertifikatni topshirdi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarda ham Andijon taqdimotiga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Prezidentimiz tabrigida shu kabi loyihalarga alohida urg'u berilib, bir yil davomida mamlakatimiz va qardosh yurtlarda o'tkaziladigan festival va ilmiy anjumanlar, badiiy kecha va ijodiy uchrashuvlar madaniy hayotimizda chuqur iz qoldiradigan, do'stlik va hamjihatlik rishtalarini yanada mustahkamlaydigan, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar ochadigan unutilmas voqea bo'lib qoladi deb ishonaman deya qayd etildi.

Bu ishonch barchamizga katta kuch va mas'uliyat bag'ishlaydi.

HECH KIM E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI



Ijtimoiy himoya

Mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va munosib turmush darajasini kafolatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Shu nuqtayi nazardan, davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Birinchi bosqichda 2026-yil 1-yanvardan boshlab homiladorlik va tug'ish nafaqasini davlat ijtimoiy sug'urtasi orqali tayinlash va to'lash tizimi yo'lga qo'yildi. Yangi tizim joriy qilingandan boshlab 5 oy davomida (2026-yil yanvar-may) homiladorlik va tug'ish bo'yicha o'chirilgan 57,9 ming mehnatga layoqatsizlik varaqasi uchun jami 658,4 milliard so'mlik nafaqa to'lab berildi. Misol uchun, ijtimoiy sug'urta orqali 2025-yilda xususiy sektorda band bo'lgan ayolga o'rta 2,6 million so'm dekret nafaqasi to'langan bo'lsa, yangi tizimni joriy etish hisobiga o'rta nafaqa miqdori 14,8 million so'mni tashkil etdi. Natijada xususiy sektorda band bo'lgan ayollarga nafaqa to'lab berish salmog'i 2025-yilning mos davriga nisbatan 2 baravar oshdi. O'tgan yilning shu davrida 5100 ayol nafaqa olgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 9600 nafarga yetdi.

Prezidentimizning 2025-yil 3-noyabrdagi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarini tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarini tayinlash va to'lashning yangi tizimi joriy etildi. Maqsad aholini og'ir hayotiy vaziyatlarda moddiy qo'llab-quvvatlash, rasmiy bandlikni rag'batlantirishdir.

2026-yil 1-iyuldan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini davlat ijtimoiy sug'urtasi orqali to'lash yo'lga qo'yiladi. Yangi tartibga ko'ra, mehnatga layoqatsizlik varaqasi o'chilganda, bir kalendar yil davomidagi dastlabki 5 kun uchun nafaqa ish beruvchi tomonidan, 6 kundan boshlab esa Davlat ijtimoiy sug'urtasi jamg'armasi hisobidan to'lanadi.

Shu yil 1-yanvardan boshlab, birinchi bosqichda dekret to'lovini proaktiv shaklda Davlat ijtimoiy sug'urtasi jamg'armasi orqali to'lash yo'lga qo'yilgan edi. Ijtimoiy sug'urtasi axborot moduli ishlab chiqilib, 10 ta vazirlik va idora bilan axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilning o'tgan davrida 81 mingga kasallik varaqasi avtomatik ko'rib chiqilib, 58 mingga bo'yicha 658,4 milliard so'mlik dekret nafaqasi to'lab berildi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligining ijtimoiy to'lovlar boshqarmasi bosh mutaxassisi Dilshodxon Muhammadjonova. — Farmonga muvofiq, joriy yil 1-iyuldan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi (kasallik nafaqasi) ham ijtimoiy sug'urtasi jamg'armasi orqali tayinlanadi va to'lanadi.

Fuqaro kasal bo'lib ishga chiqolmagan davrda ham daromadsiz qolmaydi. Uning mehnat

faoliyati va sug'urta staji hisobga olingan holda davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinadi.

— Ushbu yangi tizimda 6 ta muhim o'zgarishni qayd etish mumkin, — deydi Dilshodxon Muhammadjonova. — Birinchidan, kasallik nafaqasini moliyalashtirish tartibi o'zgaradi. Unga ko'ra, bir kalendar yildagi dastlabki 5 kun uchun to'lov ish beruvchi tomonidan, keyingi davr uchun esa davlat ijtimoiy sug'urtasi jamg'armasidan amalga oshiriladi. Ilgari kasallik nafaqasi to'liq ish beruvchi mablag'i hisobidan to'langan.

Ikkinchidan, nafaqa miqdori sug'urtasi stajiga qarab hisoblanadi. Sug'urtasi staji 6 oydan 8 yilgacha bo'lsa, o'rta haqiqi 60 foizi, 8 yildan yuqori bo'lsa, 80 foizi miqdorida to'lanadi.

Uchinchidan, imtiyozli toifalar uchun qo'shimcha kafolatlar beriladi. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, qaramog'ida to'rt va undan ortiq 18 yoshgacha farzandi bo'lganlar hamda farzandlaridan kamida biri nogironligi bo'lgan shaxslar uchun nafaqa miqdori qo'shimcha 20 foiz oshiriladi. Avval bunday qo'shimcha mexanizmlar mavjud emas edi.

To'rtinchidan, kasallik davri uchun ham alohida tartib belgilanmoqda. Fuqaroning bir yil davomida mehnatga layoqatsizlik kunlari 77 kundan oshsa, nafaqani hisoblashda qo'llanadigan staj koeffitsiyenti 10 foiz bandga kamaytiriladi. Nafaqa bir kalendar yil davomida jami 182 kungacha bo'lgan davr uchun to'lanadi. Biroq ushbu davr mehnatga layoqatsizlik varaqasi 14 yoshgacha bo'lgan farzandini parvarishlash uchun o'chilgan bo'lsa, qo'shimcha 20 kalendar kunga, 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan farzandini parvarishlash uchun o'chilgan bo'lsa, qo'shimcha 40 kalendar kunga uzaytiriladi.

Shu yil 1-yanvardan boshlab, birinchi bosqichda dekret to'lovini proaktiv shaklda Davlat ijtimoiy sug'urtasi jamg'armasi orqali to'lash yo'lga qo'yilgan edi. Ijtimoiy sug'urtasi axborot moduli ishlab chiqilib, 10 ta vazirlik va idora bilan axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.



Beshinchidan, nafaqani tayinlash jarayoni to'liq avtomatlashtiriladi. Yangi tizimning eng muhim jihatlaridan biri idoralararo raqamli integratsiyadir. Bu nafaqalarni inson omili ishtirokini kamaytirgan holda avtomatik hisoblash va tayinlash imkonini beradi.

Oltinchidan, to'lov muddati aniq belgilanadi. Avval nafaqalarni moliyalashtirish muddati aniq

belgilanmagan edi. Endi o'yning 1-15-sanalari tayinlangan nafaqa shu o'yning 25-sanasiga qadar, o'yning 16-31-sanalari tayinlangan nafaqa keyingi o'yning 10-sanasiga qadar moliyalashtiriladi. Ilgari bu jarayon ham ish beruvchi tomonidan ichki imkoniyat asosida bajarilgan.

Ushbu tizim amaliyotga joriy etilishi

natijasida yil yakuniga qadar 800 mingga yaqin sug'urtalangan shaxsga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasini tayinlash va to'lash ko'zda tutilmoqda.

Kasallik tufayli insonning ishlash imkoniyati cheklanishi mumkin. Bunday vaziyatda daromad manbasi qisqarishi oila byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimi esa ana shu xavflarni yumshatish, fuqarolarning daromadini saqlab qolish va kambag'allikka tushib qolish ehtimolini kamaytiradi.

Yangi tizim yil beruvchilar uchun ham muhim. Ilgari vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalarini to'lash bilan bog'liq moliyaviy yukning asosiy qismi ish beruvchilar zimmasida bo'lgan bo'lsa, endi uzoq muddatli kasallik holatlaridagi to'lovlar davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini qisqartirish, ish o'rinlarini saqlab qolish va yangi ish o'rinishi o'chish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur tizimning yana bir muhim jihati, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida qurilganidir. Nafaqa miqdori fuqaroning sug'urtasi staji va rasmiy mehnat faoliyatiga bog'liq holda belgilanadi. Bu esa rasmiy bandlikni rag'batlantirish, mehnat munosabatlari qonuniylashtirishga xizmat qiladi hamda har bir fuqaroning ijtimoiy himoyasini o'z mehnat faoliyati bilan bog'laydi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining eng muhim afzalliklaridan biri to'liq raqamlashtirilganida. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi elektron mehnatga layoqatsizlik varaqasi va davlat axborot tizimlaridagi ma'lumotlar asosida fuqaro murojaatid, proaktiv tarzda tayinlanadi.

Bu nafaqalarni tayinlash jarayonining shaffofligini ta'minlash, o'rtiqcha hujjatbozlikni bartaraf etish hamda inson omili ishtiroki bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“Yagona Vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida oʻtayotgan “Mustaqillik toʻyi” festivalining Hazrat Navoiy nomi bilan atalgan viloyatdan boshlanganida ramziy maʼno bor. Zero, viloyat mehnatkashlari keyingi yillarda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi ekspertlar guruhi rahbari, tarix fanlari doktori, professor Abduxalil Mavrunlov boshchiligidagi olimlar, adiblar, teatr va kino sanʼatimiz dargʻalari shahar markazida qad rostlagan Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qoʻydi. Aynan shu yerdan kuy va gʻazal navolari, sheʼriyat shuuri ila “Mustaqillik toʻyi” tantanalari boshlandi.

Goʻyo u: “Men olamda yagonaman. Mening oppoq tanimda oʻzbek xalqining armonlari, orzulari, Yaratganga duolari-yu iltijolari tajassum topgan. Meni avaylang! Men endi donishmand elning muhtasham binolari, maʼrifat maskanlari, tabarruk ziyoratgohlariga zeb beraman”, deya yotgandek.

Ha, Gʻozgʻonning oq, qora, kulrang marmarlari Allohning oʻzbekka bergan moʻjizadir.

“Marmarobod” MCHJning kirish joyidagi marmar lavhaga: “Ushbu majmua Oʻzbekiston

“MUSTAQILLIK TO‘YI” BOSHLANDI

Festival doirasida viloyatning zavod, korxona va konlarida samarali mehnat qilib, oʻz bilim va tajribasi bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshayotgan ishchi-xodimlar uchun “Shukronalik” maʼrifiy uchrashuvlari tashkil etildi. Taʼkidlash joizki, bugungi taraqqiyot va bunyodkorlik jarayonlarida har bir fuqaro oʻzini islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida his etmoqda. “Shukronalik” uchrashuvlari ana shu birdamlik, minnatdorlik va kelajakka ishonch tuygʻularini yanada mustahkamladi.

Yangi Oʻzbekiston rivojining eng muhim vazifalaridan biri sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni liberallashtirish, transformatsiya jarayonlarini yakunlashdan iborat. Zero, transformatsiyalash qulay investitsiya muhitini yaratish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, xarajatlarni kamaytirish hisobiga daromadlarni oshirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishni nazarda tutadi.

Natijada mahallamiz “Obod mahalla” dasturiga tushdi. Qarabsizki, bir yilga bormay, yoʻllarimiz ravon boʻldi. Damxoʻja suv tarmogʻiga ulanishimiz bois, mahalladagi 589 xonadon toza ichimlik suv bilan taʼminlandi.

150 oʻrinli davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti qurilib, ishga tushirildi. Mahallamizdagi ikki maktab mukammal taʼmirlandi. Eng quvonchlisi, mahallaning muhtasham binosiga ega boʻldik. Bino ichi zamonaviy mebellar bilan jihozlandi. Hokimlik mahallamiz kutubxonasiga 1 ming 200 ta kitob sovgʻa qildi...”.

Biz mahalla faollari bilan birga yoz oqshomining salqin havosidan nafas olayotgan boqqa borib, moʻjizaga duch keldik. Katta bogʻ ichida taʼrifga soʻz oʻz oʻziga kattalikdagi tutlar yaproqlarini koʻz-koʻz qilib turibdi. Asfalt yoʻllarlar chetida turfa gullar kech qishgacha gullab yotar ekan.

“Bu tutlar juda qadimiy ekanini bobolarimiz aytar edi. Bir vaqtlar bidʼatga berilgan odamlar tut shoxlariga turli lattalar osib ketadigan boʻldi. Biz ulamlarimiz bilan bunga darhol chek qoʻydik”, deydi mahalladagi hokim yordamchisi Ahadjon Ahmedov.

Uchtutliklar bu ulugʻvor daraxtlari bilan faxrlanadi. Albatta, faxrlansa arziydi-da, ne-ne zamonlarni koʻrgan bu tutlar, ne-ne aziz insonlar bu tutlar tagida suhbatlar qurgan, niyatlar qilgan. Biz ulamlarimiz bilan bunga darhol chek qoʻydik”, deydi mahalladagi hokim yordamchisi Ahadjon Ahmedov.

Uchtutliklar bu ulugʻvor daraxtlari bilan faxrlanadi. Albatta, faxrlansa arziydi-da, ne-ne zamonlarni koʻrgan bu tutlar, ne-ne aziz insonlar bu tutlar tagida suhbatlar qurgan, niyatlar qilgan. Biz ulamlarimiz bilan bunga darhol chek qoʻydik”, deydi mahalladagi hokim yordamchisi Ahadjon Ahmedov.

“Mustaqillik toʻyi” festivalining navbatdagi tadbiri Navoiy kon-metallurgiya kombinatida boʻlib oʻtdi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi — bosh direktori, Oʻzbekiston Qahramoni Quvondiq Sanaqulov tadbirni ochib, yurtimizda qoʻlga kiritilayotgan zafarlar haqida gapirdi.

Prezidentimiz eʼlon qilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasida ishtirok etayotgan viloyat ahli bahorning har kunida ming-minglab koʻchatlarni ona zamin bagʻriga qadadi.

Mamlakatning yer ostidagi xazinasi oltin kumushlari, javohirotlari boʻlsa, yer ustidagi xazinasi uning aqlli odamlaridir. Aqlli odamlar bogʻchalarda, maktablarda, oliy oʻquv yurtlarida tarbiyalanadi.

Navoiy shahrida Buxoro viloyati Qorakoʻl tumanida joylashgan, matematika faniga ixtisoslashtirilgan xalqaro maktab-internat bilan hamkorlikda matematika, fizika va ingliz tiliga ixtisoslashgan 360 oʻrinli maktab-internat tashkil etilibdi. Oʻquv muassasasi bilan tanishar ekanimiz, eng asosiysi — oʻqituvchilarning saralangani diqqatimizni tortdi. Har bir sinfxonalar oʻqituvchilarning kuzatuv kameralari orqali maktab rahbariyati va xohlagan ota-onalar dars jarayonini kuzatishi mumkin. Xullas, bu maktabda matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarining iqtidorli ustozlari shu fanlarga qiziquvchi oʻquvchilarga ilm sirlarini oʻrgatmoqda.

Navoiy shahrida 2021-yilda ish boshlagan Prezident maktabi bugun mamlakatimizning eng ilgʻor taʼlim dargohlari qatoriga kirdi. Ayni paytda maktabda 144 oʻquvchi tahsil olmoqda. Ularga 35 oʻqituvchi saboq bermoqda.

Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi tomonidan chop etilgan “Ustozga ehtirom” va “Fidoyi direktorlar” kitob-albomida Navoiy shahridagi 11-umumtaʼlim maktabi direktori Gulnora Jumaniyozova faoliyati ham yoritilgan.

Maktabdagi taʼlim sifati va fan oʻqituvchilari faoliyati bilan tanishar ekanimiz, Gulnora Jumaniyozovaning haqiqatdan ham fidoyi direktor ekaniga shubha yoʻq.

“Oʻqituvchini ruhlanitirishning yoʻli bitta — ularni chinakamiga kitobga oshno qilish. Inson

“Yutuqlar oʻz-oʻzidan qoʻlga kiritilmaydi. Barcha muvaffaqiyatlar va mehnatlar zaminida davlatimiz rahbarining siyosiy jasoratini, ona Vatanga sadoqati, xalqimizga mehr-u muhabbat tuygʻusi yotibdi”, dedi u.

Insonning bilim va tarbiya olishida kitobning oʻrni beqiyos. Shuning uchun ham kombinat portalida korxona tasarrufida boʻlgan 11 ta kutubxona va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamda Toshkent davlat texnika universiteti Navoiy filiali kutubxonalaridagi mavjud ilmiy-texnikaviy, badiiy kitob va jurnallar, 150 mingga yaqin manbaning elektron nusxalarini oʻzida jamlagan kutubxona tashkil etilgan.

Bugungi kunda mazkur ilm xazinasidan kombinat mutaxassislari bilan bir qatorda har ikkala oliy oʻquv yurtining professor-oʻqituvchilari, magistr va talabalari ham foydalanmoqda.

Keyingi yillarda kombinatning shahardagi nufuzli oliyogʻohlar va texnikumlar bilan yoʻlga qoʻygan samarali hamkorligi yosh kadrlar yetishtirishda katta imkoniyat yaratdi. Buning hisobiga har yili ushbu muassasalardan yuzlab yosh mutaxassislar kombinatga kelib ishlamoqda. Ularga boshqaruv ishonib

Tinimsiz qurilishlar avj olganda ham Navoiy viloyati ahli daraxtkushlikka yoʻl qoʻymadi. Shahar qishin-yozin yashil daraxtlar qurshovida. “Mustaqillik toʻyi” festivali doirasida tumanlar va ulardagi mahallalarni aylanan ekanimiz, Navbahor tumanidagi Uchtut mahallasida ham boʻldik. Boshqalaridan farqli oʻlaroq, mahalla ahlining darvozalari yonidagi kuz gullari diqqatimizni tortdi. Yoʻllar ravonligi, gaz va suv taʼminotida muammo yoʻqligi, mahalla hududidagi 2 ta maktab va maktabgacha taʼlim tashkilotidagi holatni koʻrib, dilimiz yayradi.

“Rais buva, mahallangizda usta dehqonlar, gulchilar koʻpga oʻxshaydi, hammayoq chamanzorga aylanib ketibdi-ku”, degan gapimizga mahalla raisi Xolmurod Otamurodov toʻlib-toshib javob qaytardi:

“Yaqin oʻtmishda mahallamizning ahvoli achinarli edi. Egri-bugri yoʻllar, butunlay ishdan chiqqan simyogʻochlar, kuyib ketgan elektr uzatgichlar, taʼmirlab maktablar... Mahallaning binosi yoʻqligidan vagoncha ichida aholining arz-dodini eshitish, toʻy yoki marosimlarda boshimizdan oʻtganlarni men aytmay, siz eshitmang. Oxiri Prezident Xalq qabulxonasiga murojaat qildik.

Mamlakatimizning eng yirik marmar konlari Nurota tumanining Gʻozgʻonida joylashgan. “Mustaqillik toʻyi” festivalining keyingi manzili Gʻozgʻon shahri boʻldi.

Bepoyon kengliklar, adirlar, past-baland tepaliklardan soʻng xuddi ertaklardagi sirli qasrdan oldimizda Gʻozgʻon shahri paydo boʻldi. Oʻlisdan Gʻozgʻon marmari timsoli — oq marmar monumenti goʻzal malikadek viqor toʻkib turibdi.

Mamlakatimizning eng yirik marmar konlari Nurota tumanining Gʻozgʻonida joylashgan. “Mustaqillik toʻyi” festivalining keyingi manzili Gʻozgʻon shahri boʻldi.

Bepoyon kengliklar, adirlar, past-baland tepaliklardan soʻng xuddi ertaklardagi sirli qasrdan oldimizda Gʻozgʻon shahri paydo boʻldi. Oʻlisdan Gʻozgʻon marmari timsoli — oq marmar monumenti goʻzal malikadek viqor toʻkib turibdi.